


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026 - yil 1-sentabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 20 798 tani tashkil etadi, shundan 17 486 tasi yoki 84,1 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,4 foizni, jumladan kichik biznes va mikrofirmalarda – 115,4 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
2026	20 798	17 608	17 486
2025	18 343	15 242	15 153
2024	19 011	15 810	15 725
2023	20 094	16 958	16 880
2022	24 972	21 695	21 625

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Jizzax shahrida – 25,3 foiz, Sharof Rashidov – 15,2 foiz, G'allaorol – 8,5 foiz va Zomin – 8,7 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Jizzax shahrida – 25,9 foiz va 25,8 foiz, Sharof Rashidov – 15,9 va 15,9 foiz, G'allaorol – 8,3 foiz va 8,3 foiz hamda Zomin – 8,4 foiz va 8,5 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
Jizzax shahar	5 262	4 561	4 517
Arnasoy tumani	1 259	1 139	1 134
Baxmal tumani	1 610	1 322	1 311
G'allaorol tumani	1 765	1 468	1 460
Sharof Rashidov tumani	3 157	2 795	2 780
Do'stlik tumani	699	524	522
Zomin tumani	1 804	1 489	1 476
Zarbdor tumani	1 018	845	841
Mirzacho'l tumani	689	539	537
Zafarobod tumani	733	614	608
Paxtakor tumani	993	815	808
Forish tumani	1 299	1 092	1 087
Yangiobod tumani	510	405	405

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-sentabr holatiga 28,3 foizni (33,4 foiz va 33,6 foiz) tashkil etdi.




Korxona va tashkilotlar

Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 17,3 % (20,6 % va 20,7 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 11,2 % (13,2 % va 13,2 %). Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 662	3 623	3 619
Sanoat	2 330	2 325	2 300
Qurilish	1 340	1 321	1 308
Savdo	5 890	5 889	5 868
Tashish va saqlash	415	411	410
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 519	1 516	1 514
Axborot va aloqa	300	284	284
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	509	304	298
Boshqa turlar	4 833	1 935	1 885

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 17 608 ta faol tijorat korxonalaridan 14 368 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	14 368	81,6
Xususiy korxonalar	1 813	10,3
Oilaviy korxonalar	1 195	6,8
Aksiyadorlik jamiyati	15	0,1
Boshqalar	217	1,2

Shundan kelib chiqib, MChJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 290 ta korxonalardan 107 tasi qo'shma korxonalar va 183 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 57 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasida 124 tadan 141 taga (o'sish 17 taga) qurilish sohasida 24 tadan 35 taga (o'sish 9 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasidagi korxonalar sonining 24 tadan 35 taga, (o'sish 11 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	290	107	183
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35	13	22
Sanoat	141	66	75
Qurilish	20	5	15
Savdo	33	10	23
Tashish va saqlash	5	1	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	-	6
Axborot va aloqa	29	5	24
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-
Boshqa turlar	21	7	14

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 115 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 39,7 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkiya (17,6 %), Rossiya Federatsiyasi (12,4 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	290	107	183
Xitoy	115	40	75
Turkiya	51	18	33
Rossiya	36	13	23
Arabiston	6	2	4
AQSH	5	3	2
Boshqalar	77	31	46

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq

Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
J. Djuzbayev
72 221-54-00
(ichki raqam 2560)

Manzil:
130100, Jizzax sh.
To'qimachilar ko'chasi, 7-uy
